

DESCRIPTION OF NAVOY IN THE WORK "BABURNAMA".

Sobirov Jamshidbek

Andijan State University 3 course Student Of History Faculty

Abstract: In this article, Zahiriddin Muhammad Babur's work "Baburnoma" briefly talks about Alisher Navoi's personality, perfection and high potential of his works, his participation and position in state affairs, his services to the sultan of the time and, when the time came, his material support for the development of the kingdom.

Key words: Zahiriddin Muhammad Babur, Alisher Navoi, "Baburnoma", Abdurahman Jami, "Khamsa", enlightenment.

Introduction

O'zbek madaniyati va adabiyoti jahon ma'rifatparvarlari tasavvurida, eng avvalo, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur singari ulug' siymolar timsolida gavdalanadi. Ajdodlarimizning o'lmas ijodi asrlar osha millionlab kitobxonlar qalbini zabt etib, XXI asr o'quvchisi qalbiga ham oshno bo'lishda davom etmoqda.

Adabiyotlar tahlili

Alisher Navoiyning shaxsiyati, asarlarining barkamolligi va yuksak badiiy salohiyati haqida uning hayoti davrida, ko'p o'tmay XVI asr adabiy, tarixiy asarlarida yuksak darajada fikrlar bildirilgan. Zahiriddin Boburning "Boburnoma", "Aruz risolasi" va boshqa asarlarida Navoiyga oid fikrlar adabiyotshunoslikda ancha o'rganilgan. Muhammad Haydarning "Tarixi Rashidiy" asarida Alisher Navoiy haqida bildirilgan fikrlarni amakisi Boburning fikrlari bilan qiyosiy o'rganish mumtoz adabiyotimizni yanada teranroq tasavvur etishga imkon beradi, degan umiddamiz.

Tadqiqot metodologiyasi

"Boburnoma"da muallif Alisher Navoiyning davlatchilik ishlaridagi ishtiroki va mavqei, davr sultoniga xizmatlari va, kezi kelganda, saltanat rivojiga ko'rsatgan moddiy yordami haqida iliq so'zlarni bildiradi. Shu qatori, ijodi haqida ham so'z yuritib, asarlarini yuksak baholaydi:

"Turkiy til bila she'r aytib turlar, hech kim oncha ko'p va xo'b aytqon emas". "Tarixi Rashidiy" muallifi esa, "...uning taxallusi – Navoiydir. Ungacha ham, undan keyin ham turkiy tilda hech kim unchalik ko'p she'r bitgan emas", deb deyarli Bobur bergan bahoni takrorlaydi. Bunda Haydarning bahosi Bobur ta'rifidan taqriban 30 — 35 yil keyin berilganini inobatga olsak, Haydar tomonidan Alisherning taxallusi Navoiy ekanligi, turkiy she'rda "undan keyin ham" bu darajadagi shoir ijod qilmaganligini o'z zamondoshlariga aniqroq yetkazish zarurati paydo bo'lganligini payqash qiyin emas.

Tahlil va natijalar

Agar Bobur Navoiyning she'riyati shuhratini "hech kim oncha ko'p va xo'p aytqon emas", deya ta'riflasa, Haydar: "U she'r ilmining ustasi, uning turkiycha she'rlarining shuhrati Mullo Jomiyning forsha she'rlari shuhrati bilan teng", deb baholaydi. Bu, birinchidan, Haydarning Navoiy adabiy merosidan to'liq xabardorligini bildirsa, ikkinchidan, uning she'riyatini salmog'i va yuksak badiiyati jihatidan Abdurahmon Jomiy merosi bilan teng biladi.

Ko'pchilikka ma'lumki, buyuk bobokalonlarimiz Mir Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur 42 yil farqi bilan bir-biriga zamondosh hisoblanadi. «Boburnoma» asarida 1551 kishining ism-shariflari tilga olingan. Ular ichida juda ko'p tarixiy shaxslar — temuriy hukmdorlar, harbiy amaldorlar, ilm-fan va san'at namoyandalarining tarjimai hollaridan qisqa satrlarda, faoliyatlari bayonida zikr etilgan.

Garchi Bobur Navoiy bilan uchrashmagan bo'lsa-da, lekin yoshligidan uning shaxsi va ijodiga katta mehr bilan tarbiya topgan. Bobur tug'ilgan yili Navoiy buyuk «Hamsa»ni yozishga kirishgan, Samarqand taxtini egallagan 1498-yili esa Navoiy «Xazoyin-ul maoniy» devonini tuzgan edi.

Shunisi ahamiyatliki, «Boburnoma» asarida Alisher Navoiy nomi 16 marta tilga olinadi. «Boburnoma»da 1505–1506-yil voqyealari bayon qilinarkan, Husayn Bayqaro haqida ma'lumot berilayotgan o'rinlarda Alisher Navoiy shaxsiga ham to'xtaladi.

Jumladan, shunday fikrlarni kuzatamiz: «Alisherbek naziri yo'q kishi edi. Turkiy til bila to she'r aytubturlar, hyech kim oncha ko'p va xo'p aytgon emas».

Bobur Navoiyning musiqadan xabardor ekanini, o'zi kuylar yaratganini qayd etadi: «...yana musiqada yaxshi nimaxor bog'labtur. Yaxshi naqshlari va yaxshi peshravlari bordur».

Bobur bergan ma'lumotga ko'ra Navoiy shoh xazinasidan to'lanadigan maoshini ham olmagan. O'zi tez-tez shoh xazinasiga ehsonlar qilib turgan: «Mirzodin nima olmas, balki yilda mirzog'a kuliy mablag'lar peshkosh qilur edi».

Xulosa

Shuningdek, «Boburnoma»da biz Navoiy asarlari haqida batafsil, aniq ma'lumotlarni kuzatamiz. Albatta, bunga Boburning Navoiy bilan nisbatan bir makonda bo'lganidan tashqari, uning ijodi davr adabiyoti bilan uzviy bog'liqligi, davr shoirlariga sardorligi ham sabab bo'lgan. Bobur Navoiy asarlarining birinchi munaqqidi sifatida asarlari nomlarini «Boburnoma»da keltirishi ulug' shoir e'tibori va hurmati qatori, uning ijodini yuksak darajada tasavvur qila olganligini ham bildiradi. "Olti masnaviy kitobi nazm qilibtur, beshi "Xamsa" javobida, yana biri "Mantiq ut-tayr" vaznida "Lison ut-tayr" otliq. To'rt g'azaliyot devoni tartib qilibtur: "G'aroyib us-sig'ar", "Navodir ush-shabob", "Badoyi ul-vasat", "Favoid ul-kibar" otliq....".

Navoiyning ideal hukmdor haqidagi orzulari Bobur faoliyatida muayyan darajada aks etgan.

Mumtoz adabiyot tarixidagi bu ikki tog', bu ikki cho'qqi bo'lgan Navoiy va Bobur ijodi go'zallik va nafosat cho'qqisi, deya e'tirof etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hasan Quدراتиллаев. Hech kim Mir Alisher Navoiychalik javob yozolmagan / "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" g, 2011y, 7-son.

2. Turg'un Farziyev. Bobur va uning avlodlari. - Toshkent: Yozuvchi, 1996y.
3. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. - Toshkent: O'qituvchi, 2008y.
4. <https://uwed.uz/uz/news/fulltext/220>
5. <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/navoiy-bobur-haqida.html>
6. <https://www.uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/251>